

O‘ZBEKISTON — MARKAZIY OSIYO

*(Mintaqada mutlaqo yangi o‘zaro ishonchga
asoslangan muhit shakllanishi.)*

O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi

Tarix instituti kichik ilmiy xodimi

Muydinov Yaxyobek

Annotatsiya. Ushbu maqola quyidagi savollarga javob topish va uni tahlil qilishga bag‘ishlanadi. O‘zbekiston Respublikasida yetakchilik almashganidan so‘ng, O‘zbekiston tashqi siyosatining mintaqaviylikka burilishini nima izohlaydi. Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyoga mintaqaviy yondashuvi Islom Karimovnikidan qanday farq qiladi. 2017-yildan so‘ng Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan nozik milliy xavfsizlikdan mintaqaviy xavfsizlikka o‘tish zarurati, chegara, suv, integratsiya kabi muammolarni hal qilishi va tashabbuslari, Shavkat Mirziyoyevning qisqa vaqt ichida tashqi iqtisodiy faoliyatidagi samarali islohatlari tahlil qilinadi¹.

Kalit so‘zlar. O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Markaziy Osiyo, chegara muammolari, Rog‘un GESI, ochiq tashqi siyosat.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ochiq, muloqatga asoslangan siyosati O‘zbekiston tashqi siyosatida burilish yasadi. 2016-yildan oldingi davrdagi O‘zbekiston tashqi siyosatidan farqli ravishda, Shavkat Mirziyoyev tashqi siyosati hukumatlararo hamkorlikka asoslangan ko‘proq mintaqaviy siyosatga yo‘naldi, va qo‘shni Markaziy Osiyo davlatlari bilan tarang munosabatlarni yumshatishga maqsad qilindi. Dastlab, Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining² 72-sessiyasida nutqi va 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida, Markaziy Osiyo O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi ekanligi ta‘kidlandi³.

Shavkat Mirziyoyev o‘zining nutqlari va kitoblarida 2017-yildan so‘ng O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan ochiq, konstruktiv va muloqatga asoslangan tashqi siyosatiga asosiy 5 ta jihatni keltirib o‘tdi.

Mintaqaviy xavfsizlik. Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizlik masalalarida bir-biriga bog‘liq. Afg‘oniston bilan chegaradosh bo‘lgan O‘zbekiston uchun bu masala

¹ Farkhod Tolipov. Central Asia at 25 looking back moving forward. Central Asia Programm-2017-yil. P. 3-82.

² President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev spoke at the 72nd session of the UN General Assembly 20 September 2017 – <https://president.uz/ru/lists/view/1063>.

³ Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis 22 December 2017, <https://president.uz/ru/lists/view/1371>.

juda muhim. Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston atrofida xavfsizlik kamarini yaratish” g‘oyasi — qo‘shnilar bilan yaxshi munosabat o‘rnatishda muhim omil bolib xizmat qiladi⁴.

“Yaxshi qo‘shnichilik” tamoyili tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash barqaror iqtisodiy rivojlanishga asoslangan oqilona yo‘nalish hisoblanadi⁵. Barqaror ichki iqtisodiy o‘shishning asosiy omili Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaqin mintaqaviy hamkorlikdir.

Qo‘shnilar bilan uzoq yillik muammolarni (suv, chegara va boshqalar) hal qilish;

Mintaqaning transport imkoniyatlaridan foydalangan holda xalqaro savdo koridorlariga chiqish va import-eksport salohiyatini kengaytirish, transport xarajatlarini tejash.

Mintaqaviy iqtisodiy manfaatlar va savdo imkoniyatlaridan foydalanish, O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish va eksportni oshirish uchun qo‘shnilar bilan aloqalarni yaxshilash. Quyidagi 5 ta omil O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikni ochiq muloqotli olib borishga zamin yaratdi.

2016-yildan oldingi davrdagi O‘zbekiston tashqi siyosati turli xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, Teles Fazendeiro⁶, Marszewski⁷ Fumagalli, Blakmon tadqiqotlarida O‘zbekiston tashi siyosati “o‘z kuchiga tayangan siyosat”⁸ “global kuchlar o‘rtasida tebranib turuvchi siyosat”, “bir vaqtning o‘zida bir necha kuchlarni muvozanatga keltiruvchi siyosat” “geosiyosiy mayatnik” deb atalgan.

Birinchidan, Teles Fazendeiro va Marszewski tadqiqotlariga tayangan holda, 1990-yillardan keyin O‘zbekiston va Qozog‘iston Markaziy Osiyo mintaqasida katta birlashuv g‘oyalarini ilgari surgan⁹. Lekin bu g‘oyalar amaliy natija bermadi. Chunki davlatlar o‘rtasida ishonch past edi, Chegaralar, suv va siyosiy manfaatlar bo‘yicha keskin qarama-qarshiliklar mavjud edi. Turkmaniston va Qirg‘iziston bu birlashuv g‘oyalardan chetroqda turgan. Qozog‘iston esa birlashuv loyihalarni Rossiya bilan ko‘proq bog‘lagan.

Ikkinchidan, Fumagallining tadqiqotida islomiy qurolli harakatlarning kuchayishi natijasida O‘zbekiston tashqi siyosati O‘zbekistonda barqarorlikka erishish va uni saqlab qolish siyosati, avvalo, davlat chegaralarini mustahkamlash, va yagona

⁴Mirziyoyev, Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz - Toshkent: O‘zbekiston – 2019. B. 73.

⁵Kathleen Collins. Clan Politics and Regime Transition in Central Asia. Cambridge University - 2006. P. 1-11

⁶Matteo Fumagalli, Introduction: Stability, sovereignty, and the resilience of politics under authoritarian rule // Central Asian Survey, 2007 P. 1-6.

⁷Erica Marat. National Ideology and State-building in Kyrgyzstan and Tajikistan. Silk Road Paper: 2008. P. 3-78.

⁸Erica Marat. National Ideology and State-building in Kyrgyzstan and Tajikistan. Silk Road Paper: 2008. P. 17-33.

⁹John C.K. Daly. Kurt H. Meppen Anatomy of a Crisis: U.S.-Uzbekistan Relations, 2001-2005 Silk Road Paper, February 2006.

davlatning o'zligini shakllantirish orqali O'zbekiston mintaqaviy hamkorlikka etibor qaratmadi. Natijada hukumat elitalari O'zbekistonni mintaqada transchegaraviy xavf-xatarlar kuchayib borayotgan, ayrim qo'shni davlatlar esa ichki beqarorlikka duch kelayotgan bir paytda tinch barqaror hudud sifatida tasvirlashga muvaffaq bo'ldi.

Uchinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida energetika tizimidagi ziddiyatlar, 1997-yildan so'ng Toktagul suv omboridan suvni taqsimlash jarayonidagi ziddiyatlar¹⁰, Qirg'iziston Toktagul suv resurslaridan foyda olish va suvga to'lov joriy etishga urinishi, O'zbekistonning Tojikiston va Qirg'izistonga gaz yetkazib berishni cheklashi, elektr energiya eksport-importida qarzarlar va to'lovlardagi kelishmovchiliklar tufayli davlatlar o'rtasida mintaqaviy birlashuv sustlashdi.

To'rtinchidan, Karnegi jamg'armasining Rossiya va Yevrosiyo dasturi katta ilmiy xodimi Pol Stronski tadqiqotini tahliliga ko'ra O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi bilan yaxshi bolmagan siyosatida shaxslar tashqi siyosatini alohida e'tirof etadi ya'ni davlat rahbarlari o'rtasida sovuqlikni keltirib o'tgan. Davlat rahbarlari o'rtasida sovuqlik, Markaziy Osiyo davlatlari bilan integratsiya jarayonlarini ham sekinlashtirgan. Islom Karimovning "O'zbek xalqiga tinchlik omonlik kerak"¹¹ deb nomlangan kitobida O'zbekistonning asosiy maqsadi xavfsizlik va barqarorlikka erishish, aholini tinchligini ta'minlash ta'kidlab o'tilganligi va O'zbekiston Markaziy Osiyoga alohida mintaqasi sifatida qaramasdan xavfsizlikni yakka holda O'zbekiston ichida yaratildi. Bundan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlariga xavfsizlik va barqarorlikda ishonmagan va extiyotkor siyosat yuritib mintaqaviy xavfsizlik emas milliy xavfsizlikka etibor berganligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotlarni tahlil qilish jarayonida O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy maqsadi tinchlik va barqarorlikni saqlash, shuningdek bu davrda xavfsizlik ichki yondashuvga asoslangan ya'ni xavfsizlikni faqat O'zbekiston chegarasi ichida ko'rilganligini ko'rishimiz mumkin. Mudofaviy o'z-o'ziga tayanish" — ya'ni: "hech kimga ishonma, hech kimga qaram bo'lma." tamoyili asosida tashqi siyosat olib borilgan. Shuningdek bu davrda O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti OAV interyularida O'zbekiston Shimol yoki G'arb davlatlariga ishonmasligini ta'kidlagan. Shu sababli O'zbekiston tashqi siyosatida mintaqaviy jihatdan ham jahon hamjamiyati jihatidan ham extiyotkorlik birinchi o'ringa qo'yilgan. Bu davrdagi olib borilgan tashqi siyosat tufayli, xorij tadqiqotchilari va siyosatchilari tomonidan tanqid qilindi. Bu davrdagi tashqi siyosat tufayli Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik sustlashdi. Iqtisodiy tizimda yopiqlik, chet el investitsiyalarining kirishiga to'sqinlik, savdo geografiasini rivojlanishiga to'sqinlik, transport sohasida islohatlarning yo'qligi

¹⁰ Philip Bagus, D. Fursova. Water Conflicts in Central Asia: Some Recommendations on the Non-Conflictual Use of Water. <https://doi.org/10.3390/su13063479> murojat sanasi 25.12.2025.

¹¹Karimov. I. O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2013, 36. B.

salbiy oqibatlariga olib keldi. Lekin shuni ta'kidlash kerakki bu davrdagi extiyotkor tashqi siyosat orqali O'zbekistonda xavsizlik va barqarorlik ta'minlandi, O'zbekiston o'zini o'zi ta'minlash va "har qanday narxda barqarorlik" tamoyillarini amalga oshirdi. Lekin, 2008–2009-yillardagi Jahon iqtisodiy inqirozi yoki boshqa iqtisodiy inqirozlar O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sir o'tkazdi. Aholining aholi farovonligi, turmush darajasi nisbatan past darajada edi.

Shavkat Mirziyoyevning 2017-yildan keyingi Markaziy Osiyodagi mintaqaviy siyosati. O'zbekiston Respublikasi ikkinchi prezidenti Shavkat Mirziyoyev transmilliy suv resurslari, energetika, chegara masalalari kabi nozik mavzularni muhokama qilishda siyosiy iroda topa oldi. Markaziy Osiyo yetakchilari bilan uchrashuvlar soni sezilarli darajada oshdi. Masalan, 2017-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev 16 ta uchrashuvda ishtirok etdi, 18 ta telefon suhbatini amalga oshirdi, Turkmaniston, Qozog'iston va Qirg'izistonga uchta davlat tashrifini amalga oshirdi va uch marotaba Qozog'istonga, bir marotaba esa Turkmanistonga ishchi tashrif bilan bordi. 2017-yildan keyingi Markaziy Osiyo hamkorligidagi yana bir muhim jihat — besh Markaziy Osiyo davlati rahbarlarining muntazam maslahat uchrashuvlarining yo'lga qo'yilishi bo'ldi¹².

Birinchidan, O'zbekiston – Tojikiston o'rtasida 20 yil muammo bo'lib kelgan Rog'unGES masalasi bo'yicha muzokaralar qayta tiklandi. O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi so'nggi prezidentlar darajasidagi tashrif almashinuvi 2000-yilda Islom Karimov Dushanbega tashrif buyurganida sodir bo'lganini hisobga olsak, Shavkat Mirziyoyevning tashrifi keskin burilish nuqtasi bo'ldi. Tojikiston bilan to'xtab qolgan aviaqatnov yo'nalishlarini tiklandi. 2001-yildan beri yopiq bo'lgan 17 ta Tojikiston–O'zbekiston chegara nazorat punktlari ochildi. Bu esa har kuni 20 000 nafar fuqaroga O'zbekiston–Tojikiston chegarasidan o'tish imkonini berdi¹³. 2018-yil 17-avgustda O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida strategik sherikchilik to'g'risida shartnomani imzolanishi ikki davlat o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy ishonchni oshirdi.

Ikkinchidan, Qirg'iziston bilan 30 yillik chegara nizolari bo'yicha kelishuvlarga erishildi. 1999–2000 yillarda O'zbekiston–Qirg'iziston chegarasining yopilishi va minalashtirilishi Andijondan (O'zbekiston) O'shga (Qirg'iziston) borish uchun odatda ikki soatlik bo'lgan safarni jiddiy qiyinlashtirgan edi. Endi yo'lovchilar Bishkekka samolyotda uchib, keyin yana janubga o'n soatlik avtomobil yo'lini bosib o'tishga majbur bo'lgan¹⁴. 2017-yilda O'zbekiston–Qirg'iziston chegarasidagi "Do'stlik"

¹² F. Kobilov. From geopolitical pendulum to regional player: Uzbekistan's regional foreign policy following the leadership change in 2016 <https://doi.org/10.1080/02634937.2025.2482186> murojat sanasi 10.12.2025.

¹³ Asia Plus March 1, n.d. [\(Open in a new window\)Google Scholar](https://www.news.tj/en/news/tajikistan/politics/20180301/ten-border-crossing-points-reopen-along-tajik-uzbek-border(open in a new window))

¹⁴ Marlene..L. Sebastien. P. Axyonova. V. The Afghanistan-Central Asia relationship: What role for the EU. - EUCAM 2013. P. 1.17.

chegara punkti ochildi va birinchi kunda besh mingdan ortiq kishi ikki davlat chegarasini kesib o'tdi. 2016-yildan oldin chegaradan yigirma o'ttiz kishi kesib o'tgan. 2023-yil aprelidan boshlab esa fuqarolar O'zbekiston–Qirg'iziston chegarasidan ID-karta bilan o'tish imkoniga ega bo'ldilar, bu esa chegara postlarining ishlashini yaxshiladi va byurokratik tartiblarni yengillashtirdi. 2021-yilda O'zbekiston va Qirg'iziston prezidentlari Qirg'iziston–O'zbekiston chegarasining yakuniy delimitatsiya va demarkatsiyasi bo'yicha protokol imzoladilar. Qirg'iziston prezidenti Sadir Japarov "Markaziy Osiyodagi chegara muammolarining hal etilishida va Tojikiston va Qirg'iziston o'rtasida chegara hududidagi mojarolarni bartaraf etishda" O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyevning munosib hissasi borligini ta'kidladi¹⁵.

Uchinchidan, 2017-yil 23-mart kuni O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida Strategik sherikchilikni kengaytirish to'g'risida shartnomani imzolandi¹⁶. 2003-yildan beri davom etib kelgan Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi chegara bo'yicha muzokaralar esa 2023-yilda o'z yechimini topdi. 2023-yil dekabrda Qozog'iston rahbarining Toshkentga tashrifi chog'ida ikki davlat prezidentlari chegara demarkatsiyasi to'g'risidagi shartnomani ratifikatsiya qilish haqidagi qonunni imzoladilar. Yana bir yutuq, O'zbekiston va Qozog'iston M-39 avtomobil yo'lining bir qismini qayta ochdi. Ikki davlat o'rtasida savdo-munosabatlari tez rivojlandi. 2024-yilga kelib O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida o'zaro savdo-hajmi 4,277 million AQSh dollarini tashkil qildi.

To'rtinchidan, Turkmaniston bilan gaz tranziti va savdo yo'laklari bo'yicha shartnomalar yangilandi. 2017-yil 6-mart kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ilk xorijiy tashrifi Turkmanistonga amalga oshirildi. Xususan, uchrashuvda O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasida strategik sherikchilik to'g'risida va ikki davlat o'rtasida 2017-2019-yillarda hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha Memorandum imzolandi.

Beshinchidan, Suv masalasi atrofidagi keskin munozaralarni hal etilishi *birinchidan*, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonning qishloq xo'jaligida suv resurslariga bo'lgan qaramligini sezilarli darajada kamaytirish uchun paxta yetishtirishni keskin qisqartirishga qaror qildi. 2010-yilda Paxtaning YAIM dagi ulushi 11,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa 2018-yilga kelib 1,6 foizni tashkil qildi¹⁷. *Ikkinchidan*, yangi hukumat mojaroga emas, balki hamkorlikka ustuvorlik berdi. O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston Qirg'izistondagi uzoq yillardan beri to'xtab qolgan Qambarota gidroelektr stansiyasini qurishni birgalikda davom ettirishga kelishib oldi.

¹⁵«-iston hammamizda bor»: Shavkat Mirziyoyev Qirg'iziston va Tojikistonni qanday ogohlantirgani aytili | Vaqt.uz murojat sanasi. 07.01.2025.

¹⁶Juraev. Q. O'zbekiston Respublikasi va Jahon Hamjamiyati. Toshkent: Press Oltin Meros, 2024. B. 118.

¹⁷O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga bergan murojatnomasi, Toshkent: O'zbekiston, 2018. B. 18.

Shuningdek, O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida Chashma bulog'idan birgalikda foydalanish to'g'risidagi O'zbekiston va Tojikiston ishtirokida Zarafshon daryosida Yovon va Fondaryo GESlarini qurish bo'yicha hamkorlik oldinga siljimoqda¹⁸, O'zbekiston, Tojikiston va Qozog'iston o'rtasida Bahri Tojik suv omborini vegetatsiya davrida kelishilgan tartibda ishlatish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Bundan tashqari, yana bir yutuq — Orto To'qay suv omborini Qirg'izistonga topshirish va uni ikki davlat tomonidan birgalikda boshqarish bo'yicha kelishuvning erishilganidir¹⁹.

Oltinchidan, 2016-yildan oldingi davrda O'zbekistonning Tojikiston va Qirg'iziston bilan chegara enklavlari (hududlari) bo'yicha bahslari mavjud edi. Masalan, to'rtta o'zbek hududlari (So'x, Shohimardon, Janjalak, Chong-Qora) va ikkita tojik hududlari (Vorux, Qayrag'och) (enklavlari) Qirg'iziston hududida joylashgan bo'lsa, tojik (Sarvan) va qirg'iz (Barak) enklavlari O'zbekiston hududida joylashgan. Ushbu enklavlar (chegara hududlari) davlatlar o'rtasidagi munosabatlarga "portlovchi bomba" sifatida salbiy ta'sir ko'rsatgan. Lekin Shavkat Mirziyoyevning ochiq, diplomatiyaga asoslangan tashqi siyosati bu muammolarni hal qilishda muhim ro'l o'ynadi²⁰.

2025-yil mart oyida O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida uch davlatning chegaralari tutashgan nuqta to'g'risidagi Shartnoma va Xo'jand deklaratsiyasining imzolangani tarixiy ahamiyatga molik hodisadir. Shu yil oktyabr oyida bo'lib o'tgan Farg'ona tinchlik forumi Markaziy Osiyo davlatlarining Farg'ona vodiysida tinchlik va totuvlikni mustahkamlashga bo'lgan o'zaro intilishining yaqqol amaliy tasdig'i bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi²¹. Mazkur ijobiy o'zgarishlarni sharhlar ekanman, chegaralardagi nazorat punktlaridan minglab oddiy fuqarolar erkin o'tishi, mintaqaga bo'ylab bemaolol harakatlanishi va qarindoshlarini ziyorat qilishi uchun barcha sharoitlar yaratilishi, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida siyosiy ishonchning oshishi, mintaqaviy jihatdan birlashuv naqadar muhim ekanligi amaliy tasdig'ini topmoqda. Markaziy Osiyoning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining oltinchi maslahat uchrashuvida Prezident Shavkat Mirziyoyev milliy ID-kartalarni o'zaro tan olish masalasini o'rganishni taklif qildi²².

¹⁸ Mirziyoyev.Sh.M. Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida maqolasi. <https://president.uz/oz/lists/view/8653> murojat sanasi 23.12.2025.

¹⁹Marlene..L. Sebastien. P. Axyonova. V. The Afghanistan-Central Asia relationship: What role for the EU. - EUCAM 2013. P. 1.17.

²⁰Anceschi. Monitoring Central Asia and the Caspian Area Development Policies, Regional Trends, and Italian Interests. Venezia Edizioni Ca' Foscari - Digital Publishing, 2019, P. 1. 85.

²¹Asia Plus March 1, n.d. [https://www.news.tj/en/news/tajikistan/politics/20180301/ten-border-crossing-points-reopen-along-tajik-uzbek-border\(open in a new window\)](https://www.news.tj/en/news/tajikistan/politics/20180301/ten-border-crossing-points-reopen-along-tajik-uzbek-border(open in a new window)).
(Open in a new window)Google Scholar

²²Turkstra, A. 2018. "Central Asian Leaders Summit Signals New Era for the Region, Says EIAS Programme Coordinator Alberto Turkstra," European Institute for Asian Studies, [http://www.eias.org/news/central-asian-leaders-summit-signals-new-era-for-the-region-says-eias-programme-coordinator-alberto-turkstra/\(open in a new window\)](http://www.eias.org/news/central-asian-leaders-summit-signals-new-era-for-the-region-says-eias-programme-coordinator-alberto-turkstra/(open in a new window)).

Milliy xavfsizlikdan mintaqaviy hamkorlik o'tish. Zakirov va Nevskaya²³ tadqiqotlarida Mintaqaning markazida joylashgan O'zbekistonning milliy xavfsizligi doimo qo'shni davlatlar bilan uzviy bog'liq bo'lib kelgan. Afg'onistonning siyosiy beqarorligi, giyohvandlik kontrabandasi, terrorizm va uyushgan jinoyatchilik kabi transchegaraviy tahdidlar xavfsizlikni faqat milliy darajada emas, balki mintaqaviy kun tartibi doirasida ko'rib chiqishni taqozo etadi. Shu bois O'zbekiston 2017-yildan so'ng Markaziy Osiyo davlatlari milliy muammolarni "ichki masala" sifatida yakkalab hal qilish amaliyotidan voz kechib, "bo'linmas xavfsizlik" tamoyilini ilgari surdi.²⁴

2017-yilda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonni Markaziy Osiyoda barqarorlik va izchil taraqqiyot makoniga aylantirishdan manfaatdor ekanini ta'kidladi²⁵. Shavkat Mirziyoyev mintaqa davlatlarining xavfsizlik va hamkorlik borasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlovchi maxsus rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusini ilgari surdi.²⁶

OAV vakillari uchun bayonotida Shavkat Mirziyoyev qo'shni Afg'onistonda tinchlik o'rnatilishi Markaziy Osiyoning barqaror va izchil rivojlanish istiqbollarini to'liq amalga oshirish uchun imkoniyat yaratishini ta'kidladi. Ikki tomonlama darajada, 2017-yil 6-martdagi Shavkat Mirziyoyevning Turkmanistonga ilk davlat tashrifi chog'ida tomonlar xavfsizlik masalalarida yaqin hamkorlikning muhimligi muhokama qilindi. Uchrashuvda terrorizm, giyohvand moddalar kontrabandasi va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, shuningdek, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash masalalarida fikr almashdi.

2018-yilda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston ichki ishlar vazirlari uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish va respublikalar chegaralarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ichki ishlar organlarining o'zaro hamkorligini muvofiqlashtirish mexanizmlarini muhokama qilish uchun Cholpon-O'ta shahrida ilk qo'shma yig'ilishni o'tkazdilar. Tomonlar qo'shma reja bo'yicha kelishib oldilar va chegaralardagi xavfsizlikni ta'minlash hamda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha umumiy siyosatni belgilovchi protokolni imzoladilar²⁷.

²³Zakirov, I., and Y. Nevskaya. 2017. "Uzbekistan's New Foreign Policy Doctrine". The Central Asia-Caucasus ANALYST, 18 September, [https://www.cacianalyst.org/publications/analytical-articles/item/13470-uzbekistans-new-foreign-policy-doctrine.html\(open in a new window\)](https://www.cacianalyst.org/publications/analytical-articles/item/13470-uzbekistans-new-foreign-policy-doctrine.html(open in a new window)).
(Open in a new window)Google Scholar

²⁴Umarova. N. Boltayev. M. Markaziy Osiyo – Afg'oniston hamkorligi: muammolar va imkoniyatlar mavzusida intervyu. 29.10.2025.

²⁵Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, 2023, jild 1, bet 45.

²⁶Aben, D. 2019. "Regional Security in Central Asia: Addressing Existing and Potential Threats and Challenges." Eurasian Research Journal 1: 51–65.

(Open in a new window)Google Scholar

²⁶Iryukov, S. V. 2019. "Uzbekistan as a Mirror of Change in Central Asia: A Sultanistic Regime and Its Transformation." Central Asian Survey 59 (2): 337–359. <https://doi.org/10.1525/AS.2019.59.2.337>

²⁷Iryukov, S. V. 2019. "Uzbekistan as a Mirror of Change in Central Asia: A Sultanistic Regime and Its Transformation." Central Asian Survey 59 (2): 337–359. <https://doi.org/10.1525/AS.2019.59.2.337>

Ikki tomonlama darajada, 2017-yilda Qozog‘iston va O‘zbekiston Qozog‘iston mudofaa vaziri general-polkovnik Saken Jasusakov va O‘zbekiston mudofaa vaziri general-polkovnik Qobul Berdiev uchrashuvi chog‘ida birinchi harbiy hamkorlik rejasini imzoladilar²⁸. O‘zbekiston Qirg‘iziston va Tojikiston bilan ham shunga o‘xshash kelishuvlarni imzolandi. 2018-yilda Qozog‘iston va O‘zbekiston xavfsizlik kengashlari kotiblari harbiy hamkorlikni kuchaytirish va kengaytirish, chegara nazorat punktlarini modernizatsiya qilish, noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish, bojxona nazorati va fuqaro aviatsiyasida xavfsizlikni yaxshilash masalalarini muhokama qildilar. 2024-yil mart oyida Astanada o‘tkazilgan besh davlat xavfsizlik kengashlarining qo‘shma yig‘ilishi natijasida xavfsizlik bo‘yicha hamkorlik mintaqaviy darajaga ko‘tarildi²⁹.

Shavkat Mirziyoyevning qisqa vaqt ichida samarali tashqi iqtisodiy faoliyatidagi samarali islohatlar.

Burunciuc, Peyrouse kabi Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, O‘zbekistonning tashqi siyosati ichki yo‘nalishga qaratilgan va izolyatsion siyosatdan tashqariga ochiqlikka o‘tdi, hamda siyosiy va iqtisodiy jihatdan yanada ochiq bo‘ldi. Shavkat Mirziyoyev shuni anglaganki, barqaror ichki iqtisodiy o‘sinhning asosiy omili Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaqin mintaqaviy hamkorlikdir.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning rasmiy nutqlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik qo‘shni davlatlar bilan munosabatlardagi eng ko‘p tilga olingan masala bo‘lgan. Shavkat Mirziyoyevning 71 ta nutqining 35 tasida Prezidentimiz, mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikka urg‘u bergan. Bu iqtisodiy hamkorlik o‘zaro savdo, xorijiy investitsiya siyosati, sanoat kooperatsiyasi va turizm kabi sohalarni qamrab oladi. Mintaqaviy hukumatlararo iqtisodiy hamkorlik esa bu sohalar uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan davlat institutlari va agentliklarining faol aloqalarini bildiradi.

O‘zbekistonda 2017-yildan so‘ng ichki iqtisodiy sohada samarali islohatlar

1. Ichki iqtisodiy islohotlar

- Milliy valyutaning erkin konvertatsiya qilinishi;
- Moliyaviy va savdo liberallashtirish;
- Investitsiya qonunchiligini moslashtirish;
- Soliqqa oid islohotlar;
- Biznesga ma’muriy bosimni kamaytirish³⁰

²⁸Uzdaily.uz. 2017. “Uzbekistan and Kazakhstan intend to Increase Trade turnover to \$5 billion,” [https://www.uzdaily.uz/ru/post/34156\(open in a new window\)](https://www.uzdaily.uz/ru/post/34156(open in a new window)).

²⁹Speech by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the Consultative Meeting of the Heads of States of Central Asia, 9 August 2024, <https://president.uz/ru/lists/view/7456>.

³⁰Biryukov, S. V. 2019. “Uzbekistan as a Mirror of Change in Central Asia: A Sultanistic Regime and Its Transformation.” Central Asian Survey 59 (2): 337–359. <https://doi.org/10.1525/AS.2019.59.2.337>.

2. Tashqi ishlar vazirligini isloh qilish, 2018-yilda Prezidentimiz Shavkat

Mirziyoyev Tashi ishlar vazirligi faoliyatini tanqid qilib, kadrlar va tuzilmani isloh qilishga chaqirdi. Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistondagi elchixonalar tarkibida savdo-iqtisodiy masalalar bo'yicha maslahatchilar lavozimlari joriy qilindi³¹. Ular investitsiya jalb qilish, eksportni oshirish va turizm oqimini kuchaytirish bilan shug'ullanishi ta'kidlandi. Har bir elchiga O'zbekistonning ma'lum bir hududi biriktirilib va ular har kuni shu hudud rahbarlari bilan muloqot qilib, iqtisodiy aloqalarni kuchaytirishi lozimligi qayd etildi³².

3. Mintaqaning iqtisodiy salohiyatidan foydalanish

O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy salohiyatini tan oldi va uni ichki iqtisodiy o'sishga xizmat qildirish uchun ikki yo'nalishda harakat qildi.

A. Mintaqaviy darajada:

- Bojxona va chegara zo'nalarida raqamlashtirishni rivojlantirish;
- Mintaqaviy savdo va iqtisodiy hamkorlikning umumiy yo'nalishlari bo'yicha bitimlar tuzish;
- Chegara hududlarda savdo zonalari– soliq va bojxona tizimlarini uyg'unlashtirish
- Yetkazib berish zanjirlar ta'minotini kengaytirish.

Rossiyaning Ukraina bilan urushi eksport-import yo'llarining qay darajada zaif ekanini ko'rsatib qo'ydi. Shu sababli davlatlar yangi transport yo'laklarini izlashga majbur bo'ldi. O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlariga mintaqaviy sanoat va qishloq xo'jaligiga oid hamkorlikni kuchaytirishni taklif qildi. Ikki tomonlama darajada doimiy iqtisodiy forumlar, investitsiya anjumanlari tashkil etildi. 2019-yilda Toshkentda birinchi Markaziy Osiyo iqtisodiy forumi bo'lib o'tdi. Shavkat Mirziyoyev quyidagi tashabbuslarni ilgari surdi. Markaziy Osiyoda yagona to'lov tizimi, transport, savdo va qishloq xo'jaligi vazirlari uchrashuvlari, viloyatlar rahbarlari uchun mintaqaviy assotsiatsiya tuzish va doimiy uchrashuvlarni tashkil qilish kerakligi ta'kidlandi. Markaziy Osiyo mintaqasida savdo hajmi 2017-yilda 668,2 mln dollar 2019-yilga kelib 5,2 mlrd dollarga 2025-yilga kelib 14 milliard dollorni tashkil qildi. Qirg'iziston bilan savdo 8 barobar Tojikiston va Turkmaniston bilan 5 barobar oshdi³³.

Umuman olganda, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida 2016-yilgacha mintaqaviy birlashuv jarayonlari sust kechgan bo'lsada, 2017-yildan so'ng ochiq, muloqotga asoslangan tashqi siyosat tufayli Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalar qayta tiklandi. O'zaro ishonch, manfaatlar mushtarakligi, diniy, etnik yaqinlik va O'zbekistonning faol va izchil diplomatiyasi orqali Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida mintaqaviy birlashuv kuchaydi. Qisqa fursat ichida davlatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy,

³¹G'afurov. S. Markaziy Osiyo: Mintaqaviy tahdidlar, Integratsiya, Zamonaviy siyosiy jarayonlar, Toshkent, 2023.

³²O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga bergan murojatnomasi, Toshkent: O'zbekiston, 2018. B. 18.

³³ Markaziy Osiyoda birdamlik va mintaqaviy o'ziga xoslik darajasi rivojlanib bormoqda // Yangi O'zbekiston Gazetasi. 2024-yil 10-avgust.

sanoat kooperatsiyalari, transport-kommunikatsiya sohalarida hamkorlik shiddat bilan rivojlandi. Birgina misol, 2017-yilda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida o'zaro savdo hajmi 668 million AQSh dollari 2025-yilda esa 14 milliard dollorni tashkil etganligi mintaqah davlatlarida ham siyosiy, ham iqtisodiy bog'liqlik kuchayib borayotganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Biryukov, S. V. 2019. "Uzbekistan as a Mirror of Change in Central Asia: A Sultanistic Regime and Its Transformation." *Central Asian Survey* 59 (2): 337–359. <https://doi.org/10.1525/AS.2019.59.2.337>.
2. G'afurov. S. Markaziy Osiyo: Mintaqaviy tahdidlar, Integratsiya, Zamonaviy siyosiy jarayonlar, Toshkent, 2023.
3. Umarova. N. Boltayev. M. Markaziy Osiyo – Afg'oniston hamkorligi: muammolar va imkoniyatlar mavzusida intervyu. 29.10.2025.
4. Marlene.L. Sebastien. P. Axyonova. V. The Afghanistan-Central Asia relationship: What role for the EU. - EUCAM 2013. P. 1.17.
5. Philip Bagus, D. Fursova. Water Conflicts in Central Asia; Some Recommendations on the Non-Conflictual Use of Water. <https://doi.org/10.3390/su13063479> murojat sanasi 25.12.2025.
6. John C.K. Daly. Kurt H. Meppen Anatomy of a Crisis: U.S.-Uzbekistan Relations, 2001-2005 Silk Road Paper, February 2006.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga bergan murojatnomasi, Toshkent: O'zbekiston, 2018. B. 18.
8. Karimov. I. O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2013, 36. B.
9. Mirziyoyev, Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz - Toshkent: O'zbekiston – 2019. B. 73.
10. Speech by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the Consultative Meeting of the Heads of States of Central Asia, 9 August 2024, <https://president.uz/ru/lists/view/7456>